
O`ZBEKISTONDA IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING USTUVOR YO`NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI

O'roqova Laylo Akmaljon qizi
O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yetakchi mutaxassisi
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.22979829

2022-2026-yillarga mo`ljallangan Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi. Yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 7 ta yo`nalish va 100 ta maqsaddan iborat. Mazkur strategiyaning 29-maqsadi "Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko`rish" deb nomlanib, shu maqsadga erishishda quyidagi vazifalar belgilab berilgan (1-rasm). "Investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo`yicha, «pastdan-yuqoriga» tamoyili asosida, yangi tizim yo`lga qo`yish" deb nomlangan yo`nalishida Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi Hududlar iqtisodiy salohiyatini chuqur tahlil qilgan holda investitsiya loyihalarini amalga oshirish va monitoring qilish hamda eksportni rag`batlantirish bo`yicha «tuman (shahar)-viloyat-respublika» tizimida ishlovchi Loyiha guruhlari faoliyatini tashkil etish mexanizmi belgilab qo`yilgan.



1-rasm. 2022 – 2026 yillarga mo`ljallangan yangi O`zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 26-maqsadining ustuvor yo`nalishlari va vazifalari

Mazkur bayon loyihasi bo`yicha har bir viloyatda loyihalarni moliyalashtirish uchun to`g`ridan-to`g`ri investitsiyalar jamg`armasi ishtirokidagi «Xolding kompaniya» tashkil etish va uning faoliyati bo`yicha aniq tartib ishlab chiqish nazarda tutilgan.

Maqsadning "2026-yilgacha xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini ishlab chiqib, amalga oshirish" deb nomlangan yo`nalishining amalga oshirishda esa O`zbekiston Respublikasining 2026-yilgacha mo`ljallangan xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish strategiyasini ishlab chiqish belgilab qo`yilgan.

Strategiya loyihasini ishlab chiqishda quyidagilarga asosiy ustuvorlik berilish ko`zda tutilgan:

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

- dunyoda investitsiya bozorida vujudga kelayotgan o`zgarishlar tahlili, ehtimoli tendensiyalarni tahlil qilish;
- investitsiyalar uchun vujudga keladigan keskin raqobatga qarshi choralar;
- xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning yangi samarali mexanizmlari;
- ichki investitsiya resurslarini rag`batlantirish mexanizmlari;

"Davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog`liqni saqlash, ta'lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo`jaligi va boshqa sohalarga 14 mlrd AQSh dollari investitsiyalarni jalb etish" deb nomlangan yo`nalishining amalga oshirishlish mexamizmiga 2022-2026-yillardagi vazifalardan kelib chiqqan holda davlat-xususiy sheriklik tamoyili asosida hamda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlariga muvofiq amalga oshiriladigan ustuvor islohotlar bo`yicha quyidagi davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish kiradi:

1-jadval.

2022-2026-yillarda amalga oshiriladigan davlat-xususiy sheriklik loyihalari

Energetika sohasida DXSh qonunchiligi asosida jami summasi	3 147 mln AQSh dollariga teng bo`lgan 9 ta DXSh loyihalari;
Transport sohasida DXSh qonunchiligi asosida jami summasi	8 699 mln AQSh dollarga teng bo`lgan 5 ta DXSh loyihalari;
Sog`liqni saqlash sohasida DXSh qonunchiligi asosida jami summasi	275 mln AQSh dollariga teng bo`lgan DXSh loyihalari;
Ta'lim sohasida DXSh qonunchiligi asosida jami summasi	380 mln AQSh dollariga teng bo`lgan 4 ta DXSh loyihalari;
Ekologiya sohasida DXSh qonunchiligi asosida jami summasi	338,4 mln AQSh dollariga teng bo`lgan 33 ta DXSh loyihalari;
Kommunal xizmatlar sohasida DXSh qonunchiligi asosida jami summasi	975 mln AQSh dollariga teng bo`lgan 5 ta DXSh loyihalari;
Suv xo`jaligi sohasida DXSh qonunchiligi asosida jami summasi	40,3 mln AQSh dollariga teng bo`lgan 31 ta DXSh loyihalari.

Xalqaro moliya institutlar bilan O`zbekiston taraqqiyot banki tashkil etish bo`yicha konsultativ maslahat olish, O`zbekiston taraqqiyot banki tashkil etish bo`yicha idoralararo ishchi guruh tashkil etish va takliflar ishlab chiqish kabi maqsadlar "Hududlarda sanoat va infratuzilmani rivojlantirish uchun, «Taraqqiyot banki» tashkil etish" deb nomlangan yo`nalishida o`z aksini topgan.

Shuningdek, Maqsadda «Investorlarga ko`mak markazi»ni tashkil etish va bu orqali markaz faoliyatini investor va tadbirkorlar uchun «Yagona darcha» tamoyili asosida tashkil qilib investorlar faoliyatiga yengilliklar kiritilishi ko`zlangan. Markazga tadbirkorlik va eksportni qo`llab quvvatlash jamg`armalarini ajratish, ruxsatnomalar berish kabi masalalarni hal etish vakolatlarini berishni ko`zda tutilmoqda.

«Innovatsiya va texnologiya markazi»ni tashkil etish bo`yicha tegishli qaror loyihasini ishlab chiqish orqali xalqaro indekslarda yuqorilash imkoniyati paydo bo`ladi va mazkur maqsadning "Toshkent shahrining har bir tumanida «Innovatsiya va texnologiya markazlari» faoliyatini yo`lga qo`yish" deb nomlangan yo`nalishida amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Shu bilan birga, 26-maqsadda har yili Toshkent shahrida 2022-yildan boshlab «Toshkent xalqaro investitsiya Forumi» o`tkazib borishni yo`lga qo`yish nazarda tutilgan. Bu bevosita har yili investorlar diqqatini mamlakatimizga tortish uchun zamin yaratadi.

Dunyo bo`ylab investitsiya kiritayotgan 50 dan ortiq mamlakatdan Xitoy, Rossiya, Turkiya, Qozog`iston va Janubiy Koreya yetakchilik qilmoqda. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar ulushi asosan iqtisodiyotning sanoat (30,6%) va savdo (28,5%) sohalariga to`g`ri keladi. Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarda rasman band aholining 6%i faoliyat yuritadi, biroq ushbu korxonalarning ishlab chiqarishdagi ulushi 15%ni, asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi esa 24%ni tashkil yetadi.

So`nggi yillarda amalga oshirilayotgan investitsion islohotlar hamda xorijiy investitsiyalarning asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibiga ko`ra ulushi quyidagi holatda ko`rishimiz mumkin.

- To`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 11,9 trln, so`mni yoki, 2024-yilning mos davriga nisbatan 136,8 % ni tashkil etdi;
- O`zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 2,0 trln, so`mni yoki, 2024-yilga nisbatan 122,0 % ni tashkil etdi;
- Kafolatlanmagan xorijiy kreditlar va boshqa xorijiy investitsiyalar hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 11,2 trln, so`mni yoki, 2024-yilga nisbatan 75,2 % ni tashkil etdi.

Mamlakatimizda xorijiy investorlar uchun qulay investitsiya muhiti yaratilishi natijasida asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi yildan-yilga ortib borayotganligini 2-jadval ma'lumotlaridan bilib olish mumkin.

2-jadval

O`zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi,%[1]

Yillar	t	Asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi, %
2014	**1**	26,4
2015	**2**	19,8
2016	**3**	19
2017	**4**	18,1
2018	**5**	18,5
2019	**6**	18,5
2020	**7**	20,7
2021	**8**	23,8
2022	**9**	24,3
2023	**10**	43,6
2024	**11**	42,7
2025	**12**	42,3

[1] O`zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi (stat.uz) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Ekonometrik model asosida kiritilayotgan investitsiya hajmlarini tahlil qilish iqtisodiy holatga yanada chuqurroq nazar tashlashga imkon beradi. Shu sababdab keyinchilik mamlakatda asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushini natijaviy ko`rsatkich sifatida ekonometrik modelga kiritdik va "Y" bilan belgiladik. Funksiyaga ta'sir etuvchi omil sifatida t – vaqt omili (yillar) qabul qilindi. O`zbekiston Respublikasi Statistika qo`mitasining 2014-2025-yillardagi yuqorida ko`rsatilgan ma'lumotlar asosida **Microsoft Excel** va **RStudio** dasturida quyidagi ekonometrik model hisoblandi:

3-jadval

Regressiya tenglamasi natijalari[2]

Regression statistika	**a)**
Ko`p miqdorli R	0,742631
R-kvadrat (Multiple R-squared)	0,5515
Norma R-kvadrat (Adjusted R-squared)	0,5067
Sandart xatolik	7,182
Kuzatuvlar	12
p-value	0.005663

Yuqoridagidan ko`rishimiz mumkinki, R bu korrelyasiya koeffisiyenti bo`lib, u omillar o`rtasidagi bog`lanish zichligini ko`rsatadi. Ya'ni, vaqt omili va asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi o`rtasidagi bog`lanish zichligi boshqa shart-sharoitlar o`zgarmas bo`lgan holatda 0,74ga teng ekan. Bu ko`rsatkich ushbu omillar o`rtasida kuchli bog`lanish bor ekanligini ko`rsatadi.

Dispersion analiz				**b)**
	df	SS	MS	F
Regressiya	1	634,2051	634,2051	12,29658
Qoldiq	10	515,7574	51,57574	
Jami	11	1149,963		

	Koeffisiyentlar	**Standart xatolik**	**t-statistika**	**Past 95%**	**Yuqori 95%**
Ozod had (a)	**12,78636**	**4,419985**	**2,892852**	**2,938023**	**22,6347**
O`zgaruvchi (t)	**2,105944**	**0,600558**	**3,506647**	**0,767818**	**3,44407**

[2] Muallif hisob-kitoblari

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Misrosoft Exsel dasturidagi hisob-kitoblar natijasida quyidagi ekonometrik modelni tuzdik:

$$Y=12,78636+2,105944\times X1$$

$$R = 0,74 \qquad D = R^2 = 0,55 \qquad F = 12,3$$

Modeldan ko`rinib turibdiki, vaqt omilining 1 yilga o`sishi va asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushining 2,105944% ga o`sishiga olib kelar ekan.


Endi vaqt omili (yillar)ni modelga kiritib, asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushini istiqbolli davr uchun o`sish sur'atlarini aniqlaymiz (4-jadval).

4-jadval

O`zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari va kreditlari ulushining istiqbolli uchun prognoz ko`rsatkichlari[3]

Yillar	t	Asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi, %
2026	14	46,5
2027	15	48,6
2028	16	50,7
2029	17	52,8

Microsoft Exsel dasturida "List prognoza" funksiyasidan foydalangan holda prognozni amalga oshiradigan bo`lsak, u holda optimistik va pessimistik ssenariylar uchun ham prognozni amalga oshirishimiz mumkin (3.3.3-rasm).



1-rasm. O`zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari va kreditlarining optimistik va pessimistik ssenariylar uchun prognoz qiymatlari[4]

[3] Muallif ishlanmasi.

[4] Muallif ishlanmasi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

1-rasmdan ko`rinib turibdiki, asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi 2026-yilda optimistik ssenariyga ko`ra 84,3% ni, pessimistik ssenariyga ko`ra esa 21,4 %ni tashkil etadi.

O`zbekiston respublikasida hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiyalar va kreditlar 3 ta mezon bo`yicha klassifikasiya qilinadi. Bular:

- to`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalar; O`zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar; kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar.

Bizning hisob-kitoblarimiz bo`yicha asosiy kapitalga investitsiyalarda chet el investitsiyalari va kreditlarining ulushi keyingi to`rt yillikda barqaror yuqori o`sish tendensiyasiga ega bo`ladi. 2026-yilga borib uning YaIMdagi ulushi 52,8 foizni tashkil etadi. Shuningdek, optimistik va pessimistik ehtimolliklar ham mavjud bo`lib, noaniqliklar natijasida shakklanishi mukin bo`lgan ssenariylar ham bunda o`z aksini topgan.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.